



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGI

REPUBLIC OF UZBEKISTAN MINISTRY OF PRESCHOOL AND SCHOOL EDUCATION

100011, Toshkent shahri, Navoiy ko'chasi, 2a-uy Tel.: (+998) 71 241-01-86; (+998) 55 503-74-00
web-site: www.uzedu.uz, e-mail: uzedu@exat.uz

2025-yil 28-avgust

04-37-3683-son

**Ixtisoslashtirilgan
ta'lim muassasalari agentligiga**

**Qoraqalpog'iston Respublikasi
maktabgacha va maktab ta'limi vaziri,
Toshkent shahar va viloyat
maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmalari
boshliqlariga**

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining o'ttiz to'rt yillik bayramiga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish to'g'risida" 2025-yil 10-iyuldagi PQ-222-son qarori ijrosini ta'minlash maqsadida vazirlik tomonidan bog'cha va maktablar uchun ishlab chiqilgan tavsiya va namunaviy senariylar asosida **"Salom bog'cha"**, **"Birinchi qo'ng'iroq"** va **"Mustaqillik dars"** larini tashkil etish hamda tadbirlar davomida quyidagilarga e'tibor qaratishingiz talab etiladi.

Xususan:

- maktabgacha va maktab ta'limi tashkilotlari (keyingi o'rinlarda - ta'lim tashkilotlari) da **joriy yilning 2-sentabr** kuni **"Vatan uchun, millat uchun, xalq uchun!"** degan ezgu g'oyani o'zida mujassam etgan bayram tadbirlarini tashkil etish (*tadbir davomiyligi 45 daqiqadan oshmasligini inobatga olish*);

- umumiy o'rta ta'lim maktablarining 1-sinf o'quvchilariga **"Prezident sovg'asi" ni** mahalliy hokimliklar va faol jamoatchilik vakillari hamda ota-onalar ishtirokida tantanali topshirish.

- ta'lim tashkilotlarida **"Mustaqillik" ("Kelajak soati")** darslarini o'tkazish, bunda targ'ibot materiallari uchun **"milliytarbiya.uz"** platformasidan foydalanish;

- xalqaro va respublikada o'tkazilgan harbiy-vatanparvarlik va sport musobaqalari hamda Respublika tanlovlarida yuqori natijalarga erishgan o'quvchilarni e'tirof etish;

- o'tkaziladigan tadbirlarni ta'lim tashkilotlarining hovlisi, bog'i, soya-salqin ochiq maydonlarda o'tkazish, o'quvchilar xavfsizligini ta'minlash hamda maktab hududiga avtotransport vositalarini kiritmaslik choralarini ko'rish;

- tadbirlarni ko‘tarinki ruhda, bayramona o‘tkazilishida joylardagi mahalliy hokimliklar, “mahalla yettiligi” vakillari, ota-onalar va huquqni muhofaza qilish idoralari vakillari bilan hamkorlik qilish;

- tadbirlarga faxriy ustozlar, nuroniylar, ota-onalar, davlat xizmatchilari, deputatlar va faol jamoatchilik vakillarini taklif etish;

Shu bilan birga, bayram tadbirlarini ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlarda keng yoritilishini ta’minlashingiz so‘raladi.

Ilova: 41 varaqda.

Vazir o‘rinbosari



F.Boqiyev

Ijrochi: H.Mizamova
Tel: (55) 503-74-00

